



XITOY MANBALARIDA DAVAN DAVLATINING

SHAKLLANISH JARAYONI

Toyirov Sheralixon

Sheraliyev Bayramali

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası Tarix yonalishi

1-kurs 1.24 guruh talabalari

Abstract: The article is dedicated to the study of the formation process of the Davan state. The Davan state existed in Central Asia and Eastern Turkestan in the 6th-7th centuries, and the article analyzes its formation, political, social, and economic aspects. It explores the early stages of the Davan state, its significance, and its relations with other states. The history of the Davan state, its governance, foreign policy, and cultural development processes, as well as the general political landscape of the time, are discussed. Additionally, the article examines the impact of the Davan state on other political systems in Central Asia and its unique characteristics.

Key words: Davan state, formation, Central Asia, politics, economy, culture, history, Turkestan, governance, foreign policy.

Annotatsiya: Maqola Davan davlatining shakllanish jarayonini o'rganishga bag'ishlangan. Davan davlati, milodiy II-asrlarda Markaziy Osiyoning Farg'ona hududida mavjud bo'lib, uning shakllanishi, siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari tahlil qilinadi. Maqolada Davan davlatining dastlabki bosqichlari, uning ahamiyati va boshqa davlatlar bilan aloqalari o'rganilgan. Davan davlati tarixi, uning hokimiyati, tashqi siyosati, va



madaniy yuksalish jarayonlari hamda shu davrning umumiy siyosiy manzarasi bayon etilgan. Shuningdek, Davan davlatining Markaziy Osiyodagi boshqa siyosiy tizimlarga ta'siri va o'ziga xos xususiyatlari haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: Davan davlati, shakllanish, Markaziy Osiyo, siyosat, iqtisodiyot, madaniyat, hukmronlik, tashqi siyosat.

Аннотация: Статья посвящена изучению процесса формирования Даваньского государства. Даваньское государство существовало в Центральной Азии и Восточном Туркестане в 6-7 веках, и в статье анализируются его формирование, политические, социальные и экономические аспекты. Рассматриваются начальные этапы формирования Даваньского государства, его значение и отношения с другими государствами. Описывается история Даваньского государства, его правление, внешняя политика, культурные процессы, а также общая политическая ситуация того времени. Кроме того, в статье рассматривается влияние Даваньского государства на другие политические системы Центральной Азии и его уникальные особенности.

Ключевые слова: Даваньское государство, формирование, Центральная Азия, политика, экономика, культура, история, Туркестан, управление, внешняя политика.

Kirish: Davan davlati O'rta Osiyoning Sharqida, Sirdaryoning Yuqori havzasida joylashgan qadimgi Farg'ona antik davr o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Farg'ona haqida Yunon-rim mualliflari ma'lumotlar bermaydilar. Bu davlat haqidagi Yozma ma'lumotlar asosan Xitoy manbalarida – CHjan Syan ma'lumotlarida, Sima Syanning «Tarixiy xotiralar», Ban Gunning «Birinchi xan sulolasi



tarixi”» asarlarida beriladi. Bu manbalarda ushbu davlat «Dayuan» yoki «Davan» nomi ostida eslatiladi. Fargʻona soʻzi Sugʻd manbalarida «Fragonik» shaklida yozilib «togʻlar orasidagi vodiylar, atrofi berk soylik» maʼnosini beradi. Xitoy manbalaridagi Dayyuan ham «togʻlar orasidagi vodiylar» maʼnosini beradi. Davan davlati tarixi boʻyicha uzoq yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borilib, soʻnggi yillarda oʻzbek olimlaridan A.Asqarov, A.Xoʻjaev, B.Matboboev, A.Anorboev, S.Qudratov, B.Abulgʻozieva, B.Abdullaev, Abduholiq Abdurasul oʻgʻli kabilar arxeologik maʼlumotlarni Yozma manbalar bilan qiyosiy oʻrganish asosida samarali ishlar olib borayotgan boʻlishlariga qaramay, bu yoʻnalishda hali koʻpgina masalalar oʻz echimini topmagan. Davan davlati Shaharlarining aniq joylashuvi, davlat tizimi va boshqaruvi, davlatning chegaralari, qoʻshni davlatlar bilan munosabatlar, mahalliy madaniyatning qoʻshni madaniyatlar bilan munosabatlari masalalari shular jumlasidandir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya: Mavzuni yoritish uchun bir nechta adabiyotlardan foydalanildi. Azamat Ziyov muallifligi ostida nashr qilingan Oʻzbek davlatchiligi tarixi asarida Qangʻ davlatining paydo boʻlishi toʻgʻrisida nazariyalar oʻlchagan suriladi.

Muhokama va natijalar: Qadimgi Fargʻona aholisi bronza davridayoq buloq suvlari birlashuvidan paydo boʻlgan Qoradaryo tarmoqlari havzalarida oʻziga xos sugʻorma dehqonchilik madaniyatini yaratadilar.

Ilk temir va antik davrga kelib Fargʻonada mahalliy madaniyatlar anʼanalari asosida taraqqiy etayotgan qadimgi dehqonchilik madaniyatlari butun vodiyni qamrab oladi va aholining oʻtroq hayot tarzi jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar natijalariga koʻra, mil.avv. III asrdan boshlab butun Fargʻona vodiysida Shaharsozlik madaniyati keng yoyiladi. Aynan



mana shu davrda Fargʻona vodiysi orqali oʻtgan Buyuk ipak yoʻli tarmoqlari boʻylab Axsikent, Marhamat, Kubo, Margʻilon, Bob (Pop) kabi koʻhna Shaharlar paydo boʻladi. Shuning uchun ham mil.avv. II asrga oid Xitoy manbalari Fargʻonada 70 ta katta-kichik Shaharlar borligi haqida maʼlumot beradi. Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» asarida Davanning ikkita poytaxti – Ershi va YUchen boʻlganligi haqida xabar beriladi. Bu Shaharlarning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yoʻq. Ular Oʻzgan, Mingtepa (Marhamat), Qoʻqon, Koson, Axsikent, Oʻratepa yoki Jizzax oʻrnida joylashtiriladi. Eng qadimgi Yozma manbalar Oʻrta Osiyodagi ayrim ilk davlat uyushmalari haqida maʼlumotlar bersada, Fargʻona haqida bunday maʼlumotlar uchramaydi. SHunga qaramasdan YU. A. Zadneprovskiy Qadimgi Fargʻona (Davan) podsholigining mavjud boʻlganligini taxmin qiladi. A. Asqarovning fikricha, mil.avv. I ming yillikning oʻrtalaridan oldingi davrdagi Fargʻona haqida soʻz yuritilganda odatda faqat «chifdom» (voha) shaklidagi qadimgi davlat asoslarining paydo boʻlishi anglashiladi. Olimning fikricha, mana shu holatni hisobga olib Fargʻonada davlatchilik, aftidan, mil. avv V-IV asrlarda paydo boʻlgan boʻlishi mumkin. B. Matboboevning fikricha, A. Asqarovning bu xulosasi ikkita tarixiy dalilga asoslangan.

Birinchisi, aynan mana shu davrga oid arxeologik topilmalar (SHoʻrabas ot madaniyati) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi (mahsulot ishlab chiqarish va savdo sotiqning oʻsishi) haqidagi taxminlarni ilgari surish imkonini beradi. Ikkinchisi, mil.avv. II asrdayoq Fargʻonada koʻp sonli Shaharlar mavjudligi haqida maʼlumotlar bor. Mil. avv II asrdan boshlab Qashgʻardan Davanga Shimoliy yoʻldan karvon yoʻli harakati boshlanadi. Bu yoʻldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi.



Savdo yo'lida Davan muhim ahamiyatga ega bo'lib boradi. Tadqiqotchilarning fikricha, YAssa va Qoradaryo vohalarida ko'pgina qal'alar savdo yo'lini qo'riqlash maqsadida barpo etiladi.[1]

Davan davlati ma'lum bir siyosiy uyushmani tashkil etgan bo'lib, davlatni boshqaruvchihukmdor manbalarda «Van» (podsho) unvoni bilan ish yuritgani eslatiladi. Manbalarda «Van» unvoniga ega bo'lgan Motsay, CHan Fin, Mug'ua, YAn'lyu kabi hukmdorlarning nomlari saqlanib qolgan. YAgona hukmdor bo'lgan podsho, Ya'ni, «Van» davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ishlarni oqsoqollar kengashiga suyangan holda olib borgan. Manbalarning ma'lumot berishicha, podshoga Yaqin kishilar (odatda uning qarindoshlari) orasidan yordamchilar – bita katta yordamchi (Fu van) va bitta kichik yordamchi (Fu-go-van), tayinlangan. Davlat hukmdori yoki podsho mamlakatning siyosiy va diniy hayotida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Misol uchun, manbalarda qayd etilishicha, urushda mag'lubiyatga uchraganligi uchun hukmdor Van Motsay oqsoqollar kengashidagi umumiy ovoz berishda aybdor deb topilgan va qatl qilingan. Tadqiqotchilarning fikricha, Davan davlati mil.avv. III – milodiy III asrlarda mavjud bo'lgan bo'lib, boshqaruv tizimiga ko'ra podsholik hisoblangan. Aholining ko'pchiligi Shaharlarda istiqomat qilgan. Buyuk Ipak yo'lining paydo bo'lishi ham ushbu davlatning gullab-yashnagan davriga to'g'ri keladi. Xitoydan O'rta er dengizigacha cho'zilgan bu yo'ldagi qit'alararo savdoda Sharqiy Sug'diyona chegaralaridan to Tan davridagi Xitoy imperiyasigacha bo'lgan yo'lining xavsizligini ta'minlashda, oziq-ovqat, yo'l ko'rsatuvchilar va tarjimonlar etkazib berishda Davan davlati asosiy rol o'ynagan.[2]

Demak, podsholik boshqaruv tizimi va oqsoqollar kengashiga asoslangan Davan davlati – o'z davrida qadimgi o'zbek xalqi davlatchiligi taraqqiyoti an'alarini davom ettirgan davlat bo'lib, davlatchiligimiz tarixida alohida ahamiyat kasb etadi. Keyingi olib



borilajak tadqiqotlar Davan davlati tarixi muammolari bilan bog‘liq ko‘pgina masalalarga aniqlik kiritishi shubhasizdir. [3]

Xulosa: Davan davlatining shakllanish jarayoni uzoq davom etgan ijtimoiy, siyosiy, va iqtisodiy jarayonlar majmuasidir. Bu davrda hududiy birliklar mustahkamlanib, siyosiy tizimlar shakllandi, madaniy va savdo aloqalari rivojlandi. Davlatning vujudga kelishi ichki kuchlarning uyg‘unlashuvi va tashqi omillarga muvaffaqiyatli moslashuvi natijasida sodir bo‘ldi. Ushbu jarayon nafaqat o‘sha davrning siyosiy tarixini, balki mintaqaning keyingi taraqqiyotiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi. Bo‘riboy Ahmedov qalamiga mansub asarda esa Qang‘ davlatiga oid manbalarga to‘xtalib o‘tiladi. Maqolani tasnif qilishda tanqidiy, tahliliy, qiyoslash kabi metodologik usullardan foydalanildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azamat Ziyo: “O‘zbek davlatchiligi tarixi (eng qadimgi davrdan Rossiya bosqiniga qadar)”-T.: “.Sharq”n-2001y.
2. R.T. Shamsiddinov, A. A. Is‘hoqov: “Andijon tarixidan lavhalar”-T.:”Sharq”n-2013y.
3. Bo‘riboy Ahmedov: “O‘zbekiston tarix manbaalari (Qadimgi zamon va o‘rta asrlar)” T.:”O‘qituvchi”n-2001y.
4. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
5. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME‘MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
6. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.



7. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.
8. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
9. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
10. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
11. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
12. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
13. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
14. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
15. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.